URGANCH SHAHRI AHOLISI IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTINING DEMOGRAFIK KO‘RSATGICHLAR ASOSIDA TAHLILI

Allaberganova Ro‘zigul,
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19728722

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Urganch shahri aholisi ijtimoiy-iqtisodiy hayotining demografik ko‘rsatkichlar asosida tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqotda shaharning tarixiy shakllanishi, Ko‘hna Urganchdan Yangi Urganchga o‘tish jarayoni, XIX–XX asrlarda urbanizatsiya, sovet davri hamda mustaqillik yillaridagi demografik o‘zgarishlar qiyosiy va tahliliy usullar asosida o‘rganilgan. Shuningdek, aholi sonining o‘sishi va kamayishiga ta’sir etgan iqtisodiy, siyosiy va migratsion omillar ochib berilgan. Maqola Urganch shahri rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar. *Urganch, Ko‘hna Urganch, urbanizatsiya, demografiya, migratsiya, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, aholi soni, Xorazm, sanoatlashtirish, tarixiy jarayonlar.*

Аннотация. *В данной статье проведён анализ социально-экономической жизни населения города Ургенча на основе демографических показателей. В исследовании рассмотрены исторические этапы формирования города, процесс перехода от Куня-Ургенча к Новому Ургенчу, урбанизационные процессы XIX–XX веков, а также демографические изменения в советский период и годы независимости. Особое внимание уделено экономическим, политическим и миграционным факторам, влияющим на динамику численности населения. Работа направлена на выявление закономерностей социально-экономического развития города.*

Ключевые слова. *Ургенч, Куня-Ургенч, урбанизация, демография, миграция, социально-экономическое развитие, численность населения, Хорезм, индустриализация, исторические процессы.*

Abstract. *This article analyzes the socio-economic life of the population of Urgench city based on demographic indicators. The study examines the historical development of the city, the transition from Old Urgench to New Urgench, urbanization processes in the 19th–20th centuries, as well as demographic changes during the Soviet period and the years of independence. Particular attention is paid to economic, political, and migration factors influencing population dynamics. The research aims to identify key patterns in the socio-economic development of the city.*

Keywords. *Urgench, Old Urgench, urbanization, demography, migration, socio-economic development, population dynamics, Khorezm, industrialization, historical processes.*

Kirish. O‘rta asrlarda shaharlarning rivojlanish omillari bevosita hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivoji bilan bog‘liq holda kechgan edi. Yangi davrda manufakturalar, keyinchalik esa sanoat korxonalarining paydo bo‘lishi shahar madaniyatining shakllanishiga olib keldi. Shu bilan birga, shaharlarda aholining o‘sishi ham aynan shu savdo-sotiq, hunarmandchilik va sanoatning taraqqiyotiga parallel holda kechdi. Ya’ni, aholi sonining oshishiga aynan shaharlardagi savdo, ishlab chiqarish va madaniy infratuzilmalarining shakllanishi asosiy omil bo‘lib xizmat qildi.

Bu jarayon nafaqat Yevropa uchun, balki zamonaviy Sharq mamlakatlari uchun ham taalluqli edi. Urganch shahri ham aynan shu jarayonlarni boshidan kechirdi. Shaharning tashkil topishi iqtisodiy sabablarga bog‘liq bo‘lgani holda, eng yangi davrda ham aholi sonining oshib borishiga ham mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda, ijtimoiy-madaniy jarayonlar ham ta’sir etgan.

Adabiyotlar tahlili. Urganch shahrining qadimiy tarixini tadqiq etishda o‘rta asr manbalari, xususan, arab, fors, rus hamda yevropalik va albatta mahalliy tarixchilarning asarlari muhim manba sanaladi. Jumladan, Qazviniy, Istahriy, Battuta, Yoqut Hamaviy, Ibn Arabshoh, Beruniy, Nasaviy singari tarixchi, geograf hamda sayyohlarning asarlari Ko‘hna Urganch va uning rivoji sabablarini, Abulg‘ozi Bahodirxon, Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Laffasiy singari tarixchilarning asarlari Ko‘hna Urganch tanazzuli va Yangi Urganch rivojiga oid muhim ma’lumotlarni qo‘lga kiritishda birlamchi manbalar sanaladi. Shu bilan birga, Xorazmning betakror shaharlariga eng so‘nggi to‘liqroq ta’riflarni XVIII-XIX asrlarda bu hududga tashrif buyurgan Blankennagel, Muravev, Vamberi, Notkin, Zelenin, Nazimov, V.Grishfeld va M.N.Galkin, Gladishev, Muravin, V.Lobachevskiy, G. Danilevskiy singari chet ellik, asosan, rus mualliflarining asarlaridan topamiz.

Xususan, Blankennagel o‘z qaydlarida Xorazmdagi shaharlarning joylashuvi, mudofaa imkoniyatlari haqida fikr bildirsa, Gladishev va Muravinlar Xorazmdagi shaharlarning ijtimoiy ahvoli xususida to‘xtaladilar. N.Muravyov esa aholining iqtisodiy hayotiga ko‘proq qiziqish bildiradi.

Maqolada Urganch shahrida turli davrlarda aholi sonining oshib borishi, ayniqsa, mustaqillik yillaridagi aholi nufuzi hamda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning bog‘liq jihatlari tahliliy, qiyosiy metodlar va misollar asosida tadqiq etiladi.

Natija va muhokamalar. Urganch atamasi bugungi kunda boshqa-boshqa hududdagi ikki ma’muriy birlikka nisbatan foydalaniladi. Biri Turkmanistonning shimolida joylashgan Ko‘hna Urganch, ikkinchisi Xorazm viloyatining ma’muriy markazi sanalgan yangi Urganch.

Ko‘hna Urganch o‘rta asrlarning eng gavjum va yirik shahri sanalgan. Ayniqsa, Xorazmshoh Anushteginiylar davrida Osiyoning eng katta shaharlaridan, madaniyat, ilm-fan hamda siyosiy markazlaridan biri edi. O‘rta asrlarning mashxur sayyoh va tarixchilari sanalgan Yoqut Hamaviy, Istahriylar shaharga ta’rif berar ekanlar, shaharning kengligi hamda aholisining juda ko‘pligini e’tirof etganlar. Shuningdek, shahar o‘g‘uzlar bilan savdo qiladigan joy bo‘lganini qayd etadilar. Istahriydan

oldinroq Xorazmga kelgan Ibn Battuta esa Urganch aholisining ko‘pligidan dengiz singari to‘lqinlanib turadi, deb yozgan edi.

Ko‘hna Urganch XIII asrdagi mo‘g‘ullarning istilosidan so‘ng oldingi mavqeini yo‘qotadi. Xususan, tarixchi Ibn Arabshoh Shimoliy Xorazm iqtisodiyoti Amir Temur yurishidan keyin ham tanazzulga yuz tutganini ham yozib qoldirgan edi.

XVI asr 70-yillariga kelib Amudaryo o‘zanining Kaspiydan Orol dengiziga o‘zgarishi natijasida Ko‘hna Urganchda suvsizlik sabab yashash qiyinlashdi. 1646-yilda Xorazm xoni Abulg‘ozi Bahodirxon Ko‘hna Urganch aholisini Amudaryoning yangi o‘zaniga yaqin bo‘lgan bugungi Yangi Urganchga ko‘chirib keltiradi. Yangi shaharni ham Urganch, aniqroqi Yangi Urganch deb nomlaydi va qadimiy Urganch shahri shundan so‘ng Ko‘hna Urganch deya nom oladi.

Xorazm xonligi davrida tashkil etilgan Yangi Urganch o‘zining 350 yillik tarixi davomida sekinlik bilan bo‘lsada rivojlandi. Shaharning paydo bo‘lishi eski Buyuk ipak yo‘lining shimoliy chorrahasiga – qadimiy Xiva va Kat shaharlari oralig‘iga to‘g‘ri kelsa-da, uning yirik shaharga aylanishi xonliklar davridagi iqtisodiy qoloqlik, siyosiy tarqoqlik ortidan sust kechdi. XIX asr o‘rtalariga kelib shahar hayotining rivojlanishi natijasida vohadagi shaharlar aholisi soni osha boshladi. Bu davrda Xorazmdagi Xiva, Hazorasp, Xonqa, Urganch, Ko‘hna Urganch, Qo‘ng‘irot kabi shaharlarda 2000-5000 kishi atrofida istiqomat qilgan. Xonlikning poytaxti Xivada esa 21 mingdan ortiq aholi yashagan. Xususan, XIX asrning birinchi choragidagi ma’lumotlarga ko‘ra xonlik aholisi 300 ming, shu asrning 40-yillari ma’lumotlariga ko‘ra – 300 mingga yaqin, so‘nggi chorak ma’lumotlariga ko‘ra – taxminan 700 ming kishini tashkil etigan. Yana boshqa bir tadqiqotda esa XIX asr o‘rtalarida xonlikda 800 mingga yaqin aholi yashagani ta’kidlanadi.

O‘lkashunos K.Nurjonovning 1993-yil nashr qilingan “Ko‘hna va Yangi Urganch” risolasida tarix fanlari nomzodi E.Bekmetovga asoslanib, XVII-XVIII asrlarda Yangi Urganchda 5 mingga yaqin, 1870-yillarda esa tahminan 6 ming aholi istiqomat qilganini ta’kidlaydi. XIX asr oxirida Chor Rossiyasining Xorazm xonligini egallashi ortidan, shuningdek, XX asrda kechgan siyosiy jarayonlar natijasida Xorazm xonligi tugatildi. 1924-yildagi milliy-hududiy chegaralanishlar esa Ko‘hna Urganchning yangi tashkil qilingan Turkmaniston SSR tarkibida, Yangi Urganchning esa O‘zbekiston SSRning Xorazm okrugi tarkibida qolishiga olib keldi.

Sovet ittifoqi davrida SSSR hududida 6 marta yirik aholini ro‘yxatga olish ishlari olib borilgan. Xususan, 1926-yildagi ilk ro‘yxatga olish ishlaridan tashqari barchasida – 1939, 1959, 1970, 1979, 1989-yillardagi ro‘yxatga olish ishlarida Urganch shahri aholisi haqida ma’lumotlarni topish mumkin. Xususan, ushbu

ma’lumotlar asosida Urganch shahar aholisining 1939-1989-yillardagi nufuzini quyidagi jadvalda aks ettirish mumkin bo‘ladi:

Yillar	1939	1959	1970	1979	1989
Aholi soni *(nafar)*	22,469	43,756	76,165	100,010	126,380

(1-jadval)

Yuqorida qayd qilib o‘tganimizdek, XIX asr 70-yillarida Urganchda 6 ming atrofida aholi istiqomat qilgan bo‘lsa, 1939-yilga kelib bu ko‘rsatgich 22 mingdan ortiq kishini tashkil etgan. Butun XVIII-XIX asrlar davomida 5-6 ming aholi yashaydigan Urganch XX asr 30-yillariga kelib 20 minglik yirik shaharga aylanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, XIX asrda butun jahonda kechgan fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi sababli, qishloq hududlaridan aholining sanoat korxonalari mavjud bo‘lgan shahar hududlariga ko‘chishi oqibatida shaharlar soni oshgan yoki yiriklashgan edi. Shunindek, bu davrda shahar aholisi nufusining ortishi va qishloq hududlarida shahar madaniyatining keng yoyilishi bilan bog‘liq bo‘lgan urbanizatsiya jarayonlari tez sur’atlar bilan rivojlana bordi.

Urganch shahri ham ana shu global jarayondan chetda qolmagan edi. Jumladan, shahar aholisining o‘sishida yuqoridagi tendensiya ham muhim ro‘l o‘ynagan. Masalan, 1880-yil Urganchda feldsherlik punkti ochiladi. 1889-yil Urganchda ilk sanoat korxonasi – yog‘ ishlab chiqarish o‘z faoliyatini boshlaydi. 1903-yil Rus-Osiyo banki, 1907-1918-yillar davomida Rus-Xitoy banki faoliyat yuritadi. Bu Urganch shahri sekin astalik bilan bo‘lsada sanoatlasha borayotganidan dalolat beradi. 1935-yil Urganchda o‘qituvchilar oliygohi ochiladi. 1959-yilda Urganch Taxiatosh gidroelektrostansiyasiga ulanadi. 2 yildan so‘ng esa, aniqrog‘i 1961-yil 31-dekabrda Xorazmda televideniya o‘z ish faoliyatini boshlaydi. 1950-yillarda Yangi Urganchda 300 do‘kon borligi, haftada ikki marta bozor bo‘lishi haqida Sovet hukumati adabiyotlarida qayd etilgan.

1-jadvalda ko‘rinadiki, 1939-yil 22 mingdan ortiq bo‘lgan Urganch aholisi 1959-yilga kelib deyarli ikki barobarga oshgan, ya’ni 43,756 nafar kishiga (94.7 % o‘sish) yetgan edi. Bu yillardagi Urganch aholisining keskin o‘sishiga Ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish, SSSR davridagi sanoatlashtirish singari omillar sabab bo‘lgan. 1959-1970-yillarda esa Urganch aholisi 74 % ga oshgan bo‘lsa, 1970-1979-yillarda o‘sish 31 % ni tashkil etdi. Barchamizga ma’lumki, bu yillari butun Sovet Ittifoqida bo‘lgani singari iqtisodiy turg‘unlik, O‘zbekiston SSR, xususan, Xorazmda ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Biroq, 1979-yilda Urganch shahri aholisi 100 minglik nufusdan oshdi. 1979-1989-yillarda esa shahar aholisi 126 380 nafarga yetgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan ilk yillarda Urganch aholisi 150 ming kishini tashkil etardi.

Siyosiy mustaqillikning dastlabki yillaridagi iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan, ijtimoiy-siyosiy tiklanish davrida Xorazm viloyati aholisi juda sekinlik bilan bo‘lsa-da, o‘sib bordi *(2-jadval)*.

2-jadval

Ya’ni, 1991-yil viloyat aholisi 1 mln 97 ming nafar kishini tashkil etgani holda, 2025-yilga kelib aholi soni 2 mln 32 ming kishini tashkil qilib, o‘sish 85,1 % ni qayd etdi. Ayni davrda respublika aholisi ham aynan shunday o‘sish ko‘rsatgichlarini qayd etgan edi. Ya’ni, 1991-yil O‘zbeksiton aholisi 20,6 mln kishi bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yil respublika aholisi 38 mlnni tashkil etib, 84 % ga o‘sgan. Biroq, mazkur yillarda Xorazm viloyatining ma’muriy markazi sanalgan Urganch shahri aholisi o‘sish emas, kamayish jarayonini boshdan kechirdi. Xususan, 1991-yil shahar aholisi 150 mingga yaqinni tashkil etgan bo‘lsa, 2000-yilga kelib aholi soni 139 mingga yetadi. 2009-yilda esa Urganch shahrida 134 700 kishi istiqomat qiladi *(3-jadval)*. Faqat 2010-yildan keyingina aholi sonining o‘sish ko‘rsatgichlari namoyon bo‘la boshlagan.

(3-*jadval*)

Urganch shahrida aholi sonining bunday salbiy dinamikasiga quyidagi bir nechta omillar sabab bo‘lgan deyish mumkin:

Birinchidan, iqtisodiy sabablar, ya’ni, mustaqillikning dastlabki yillari davomida mamlakatning iqtisodiy o‘tish davrida duch kelingan qiyinchiliklar. Shahar aholisining tirikchiligi uchun zarur bo‘lgan ish o‘rinlarining mavjud emasligi, ayniqsa, mustaqillikning dastlabki yillarida Sovet ittifoqi tugatilganidan so‘ng faoliyatini to‘xtatgan yoki xom-ashyo taqchilligi sababli qisqargan korxonalar bevosita aholining daromadlariga ta’sir qildi. Natijada mustaqillikning dastlabki yillarida butun O‘zbekiston bo‘ylab yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz shahar aholisining bevosita tirikchilik uchun yo xorijga, yoki qishloq hududlariga chiqishga majbur qiladi. Zotan, Sovet Ittifoqi parchalanishi natijasida iqtisodiy aloqalar uzildi, sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi keskin pasaydi, 1991–1995-yillarda yalpi ichki mahsulot yillik o‘sishi salbiy qiymatlarga tushdi, inflyatsiya esa 1000% ga yetdi. 1996-yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot atigi 314 dollarni tashkil qildi. Shundan so‘ng mamlakat iqtisodiyotida paxta va oltin eksportiga qaramlik kuchaydi, ammo bu sohalardagi narxlarning jahon bozorida pasayishi O‘zbekiston iqtisodiyotining sustlashishiga olib keldi. Albatta, bu raqamlar Xorazm viloyatidagi aholining turmush tarziga ham bevosita ta’sir etmasdan qolmasdi.

Ikkinchidan, ichki va tashqi migratsiya, ya’ni aholining shahardan ko‘chishi bilan bog‘liq jarayonlar. Xususan, iqtisodiy omillar ta’sirida aholi Urganchni ko‘proq tark etgan *(4-jadval)*. 2000–2008 yillarda Urganch shahriga ko‘chib kelganlar soni ozchilikni tashkil qilgan. Ba’zi yillarda 300–500 kishi atrofida Urganchga ko‘chib kelgan. Aksincha, bu davrda ko‘chib ketganlar soni 2500–2700 kishi oralig‘ida — ya’ni Urganch aholi yo‘qotayotgan donor shaharga aylangan.

2010-yildan boshlab ko‘chib kelganlar sonida sekinlik bilan bo‘lsa-da, o‘sish boshlanganini ko‘rish mumkin (700–1500 kishi). Ko‘chib ketganlar soni bu yillarda 2400–2800 oralig‘ida barqarorlashgan. Aholining shaharni tark etish sur’ati sekinlashgan bo‘lsa-da, hali ham manfiy migratsiya saldosi saqlanib qolgan.



4-jadval

2018-yildan boshlab ko‘chib kelganlar sonida keskin o‘sish kuzatiladi. 2023 va 2024-yillarda esa ikkala ko‘rsatkich ham keskin o‘sgan.

Uchinchidan, Urganch shahri aholisining o‘sishi bilan bog‘liq jarayonlarda mamlakatda olib borilgan ma’muriy va huquqiy islohotlar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmagan. Ya’ni, mustaqillikning dastlabki o‘n yilliklari davomida mamlakatda aholini ro‘yxatga olish tizimi, fuqarolik va xorijga chiqish hamda mamlakatga xorijdan kirish bilan bog‘liq normativ hujjatlar liberallashtirishga muhtoj edi. Ya’ni, 2020-yillarga kelibgina O‘zbekistonda migratsiya siyosati mustaqillikning dastlabki yillariga nisbatan tubdan o‘zgardi. Zamonaviy islohotlar migratsiya jarayonlarini tartibga solish va aholi mobilitetini boshqarishda muhim rol o‘ynadi. Xususan, 2019-yildan elektron viza tizimining ishga tushishi, bir qator mamlakatlarga vizasiz chiqish imkoniyatlarining yaratilishi, turizm va infratuzilmalarning rivojlantirilishi aholining erkin mamlakatlararo ko‘chishiga olib keldi. Oqibatda, odamlar daromad topish uchun yashash joylarini butunlay tark etishga majbur bo‘lmay qoldilar.

Shuningdek, mintaqadagi ekologik holat, ilmiy-madaniy va iqtisodiy markaz sanalgan poytaxtga intilish harakteri singari omillar ham ulushi oz bo‘lishiga qaramasdan Urganch shahri aholisining o‘sishi bilan bog‘liq jarayonlarga ta’sir ko‘rsata olgan deyish mumkin.

Xulosa. Urganch shahri aholisi turli davrlarda turli nufusda bo‘lganining sabablaridan eng muhimi sifatida uning mintaqa iqtisodiy hayotidagi o‘rni bilan bevosita bog‘liq kechganini ko‘rish mumkin. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, shaharning rivojlanish bosqichlari tarixiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ko‘hna Urganchning tanazzuli va Yangi Urganchning shakllanishi tabiiy-geografik omillar, xususan Amudaryo o‘zanining o‘zgarishi bilan izohlanadi. XIX–XX asrlarda sanoatlashtirish va urbanizatsiya jarayonlari shahar aholisi sonining keskin oshishiga sabab bo‘lgan.

Sovet davrida olib borilgan sanoat va infratuzilma siyosati Urganchni yirik shaharga aylantirgan bo‘lsa, mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy qiyinchiliklar va migratsiya jarayonlari aholi sonining qisqarishiga olib kelgan. 2010-yillardan boshlab esa ijobiy demografik o‘sish tendensiyasi qayta tiklangan.

Shunday qilib, Urganch shahri aholisi dinamikasi iqtisodiy islohotlar, migratsiya jarayonlari va urbanizatsiya bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayonlar shahar rivojlanishining asosiy omillari sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ganiyeva, M. (2024) “Xiva xonligida shaharlar hayoti”, Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 13, pp. 169–173. doi: 10.54613/ku.v13i.1051.
2. Matyaqubova M. “Xiva xonligida iqtisodiy hayot (XIX asr). Tamaddun nuri, Volume 1 | Issue 8. 2025-yil, 5-son (68). B 131-134.
3. Utayeva F. O‘rta Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlar urbanizatsiyasi [Matn] : darslik / F. X. Utayeva . - Buxoro : Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2021. - 117 b.
4. Ganiyeva, M. (2024) “Xiva xonligida shaharlar hayoti”, Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 13, pp. 169–173. doi: 10.54613/ku.v13i.1051.
5. Umid Bekmuhammad “Xorazm va xorazmliklar” 2-kitob. - Buxoro
6. Нуржонов К. “Кўҳна ва Янги Урганч”. О.Абдалов номидаги вилоят босмахонаси. - Урганч, 1993-йил. 26-б.
7. Umurzakov B., Tojieva Z. “O‘zbekiston. Demografik rivojlanish va urbanizatsiya”. Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar ilmiy-elektron jurnali. 2025-yil 2-son. 432-b.
8. Ochilova, D. J., & Xo`jamberdiyev, B. (2025). Iqtisodiy krizislar: tarixiy misollar va saboqlar. B ZDIF (T. 4, Выпуск 23, cc. 46–48). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.17302954
9. Sakhipjamal Djalgasovna Djoldasova. (2021). Legal Policy Of Uzbekistan In The Field Of Migration. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 3(12), 105–112. https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume03Issue12-16

Internet manbalari:

1. https://www.demoscope.ru
2. https://www.wikidata.org/wiki/Q472925#:~:text=41%C2%B032'4.2%22N,0%20references
3. https://www.xorazmstat.uz/uz/matbuot-markazi/boshqarma-yangiliklar/6620-1991-2021-yillar-kesimida-xorazm-viloyati-doimiy-aholisi-soni-dinamikasi
4. https://www.xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2